

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11323017>

**KAFEDRA ISH FAOLIYATINI BOSHQARISHDA KAFEDRA
PROFESSOR-O'QITUVCHILARINI TA'LIM BERISH SIFATINI
BAHOLASHDA VA ULARNING REYTINGINI SHAKLLANTIRISH
UCHUN TELEGRAM BOT BILAN INTEGRATSIYALASHGAN
AXBOROT TIZIMINI ISHLAB CHIQISH**

Abdurazzoqov Qosimjon Botirjon o'g'li
O'zMU magistranti

Annotatsiya: В данной статье рассказывается о разработке информационной системы, интегрированной с системой Telegram-бот *HEMIS* для объективной оценки учебных процессов профессорско-преподавательского состава в трудовой деятельности кафедры. Представлены личные комментарии автора об удобстве Telegram-бота и его важности для облегчения работы отдела. Приведенные примеры поясняются фактами.

Kalit so'zlar: bot, messenger, murojaat, katalog, resurs, avtomatlashtirish.

Abstract: This article talks about the development of an information system integrated with the Telegram bot *HEMIS* system for the objective evaluation of the teaching processes of professors in the work activity of the department. The author's personal comments about the convenience of the Telegram bot and its importance in facilitating the work of the department are presented. The given examples are explained with evidence.

Keywords: bot, messenger, referral, directory, resource, automation.

Аннотация: В данной статье говорится о разработке информационной системы, интегрированной с телеграмм-ботом, для объективной оценки учебных процессов профессоров и преподавателей в трудовой деятельности кафедры. Представлены личные комментарии автора об удобстве Telegram-бота и его важности для облегчения работы отдела. Приведенные примеры поясняются фактами.

Ключевые слова: бот, мессенджер, реферал, каталог, ресурс, автоматизация.

Telegram Bot - mashhur Telegram xabar almashish platformasida foydalanuvchilar bilan muloqot qilish uchun mo‘ljallangan chatbot turi. Bu inson suhabatini simulyatsiya qilish va foydalanuvchi so‘rovlariiga avtomatlashtirilgan javoblarni taqdim etish uchun mo‘ljallangan kompyuter dasturi. Telegram botlaridan kafedra faoliyatiga turli yo‘llar bilan yordam berish uchun foydalanish mumkin. Misol uchun, ular savollarga javob berish va qo‘llab-quvvatlash kabi professor-o‘qituvchilar va murojaatchilarga xizmat ko‘rsatish uchun ishlatilishi mumkin. Ular, shuningdek kafedradagi o‘qituvchilarni dars o‘tish jarayonini holisona baholab, talabalar orqali o‘qituvchilar darsga qande tayorgarlik ko‘rishi dars o‘tish jarayoni haqidagi so‘rovni tasdiqlaydi yoki faoliyat yangilanishlari kabi bildirishnomalarni yuborish uchun ham ishlatilishi mumkin. Bundan tashqari, ular faoliyat tavsifi yoki topshiriq haqidagi ma’lumot kabi ma’lumotlarni taqdim etish uchun ishlatilishi mumkin.

- Ish taqsimotini osonlashtirish
- to‘lovlarni qabul qilish
- savollarga javob berish
- mijozlar bilan aloqa tezligi
- shikoyat va takliflarni qabul qilish
- xizmat turingiz yoki mahsulotingiz haqida avtomatik ma’lumot

Telegram bot biznes va ta’lim maqsadlarida foydalanish tobora ommalashib bormoqda. Ushbu texnologiya ta’lim muassasalari va korxonalarga o‘z faoliyatini soddalashtirish va mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashga yordam beradigan qator imtiyozlarni taqdim etadi. Telegram botdan foydalanishning asosiy afzalliklaridan biri shundaki, u faoliyatni tizimlashtirish va mijozlarga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq ko‘plab vazifalarni avtomatlashtirishi mumkin. Telegram botdan foydalangan holda, ta’lim muassasalari va korxonalar mijozlar so‘rovlariiga tezda javob berishlari, mahsulot ma’lumotlarini taqdim etishlari va hatto buyurtmalarni qayta ishlashlari mumkin. Bu mijozlarga xizmat ko‘rsatish vazifalariga sarflangan vaqt ni qisqartirishga yordam beradi, faoliyatning boshqa sohalari uchun resurslarni bo‘shatadi.

Telegram bot ta’limda faoliyat turlarini soddalashtirish, boshqaruvni osonlashtirish va samarali ish faoliyatini ta’minlab berishda qator qulaylik hamda qator imkoniyatlar yaratadi. Ular quyidagilar:

1. Vaqtini va ortiqcha harajatlarni tejash

Bot siz uchun barcha muntazam ishlarni bajaradi va xodimlarning murojaatlari va ish faoliyatini osonlashtiradi. Natijada siz so‘rovlarni tez va oson qabul qilasiz. Bundan tashqari kafedra professor-o‘qituvchilarining dars yuklamalarini taqsimlashda, soatlari bo‘lishda ham telegra botdan foydalanish mumkin.

2. Messenjerlar auditoriyasini oshirish

Messenjerlar orqali kafedraga kelib tushuvchi so‘rovlarga javob berish qulaylashadi, robotning o‘zi barcha savollarga javob beradi. Natijada ish samaradorligi yanada ortadi.

3. Oddiy foydalanish imkoniyati

Kafedra a’zolari uchun Bot mutlaqo tushunarli, boshqarish oson va funktionaldir. Foydalanuvchi o‘zi qidirayotgan narsani darhol topadi. Ya’ni botda berilgan bandlar foydalanuvchi professor o‘qituvchiga maksimal darajada qulaylik yaratadi. Uni ortiqcha yugur-yugurlardan xalos etadi.

4. Telegram bot kafedra mudiri va professor-o‘qituvchilar uchun har tomonlama qulaylik yaratib beradi.

- Chat botlar
- Kataloglar
- Ta’lim uchun botlar
- Ma’lumot yig‘uvchi bot
- O‘quv markazlari uchun
- Faoliyatni avtomatlashtirish
- Kafedralar uchun saqlash tizimi
- Talabalar uchun online tashxis qo‘yish uchun botlar.

Misol qilib oladigon bo‘lsak kafedra mudiri uning qo‘l ostidagi o‘qituvchilarning darslarni qay tarzda o‘tishi haqida malumotlar olishi ularni boshqarishni osonlashtradi. Botda dars jadvallari reyting natijalar haqida malumotlar olish mumkun. Talabalarga so‘rovlар kelib o‘qituvchilarni dars o‘tish jarayonlarini baholagandan so‘ng o‘qituvchilarni reytinglari universitet,fakultet miqyosida aniqlanib boriladi.bu telegram botning afzaliklari talabalarning bilim konikmalarini rivojlantrishga qaratilgan.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Kim David. Fundamentals of Information Systems Security. -USA, 2014. - p.544.
2. Mark Stump. Information Security: principles and practice. -2 nd ed. -USA, 2011. -p.608.
3. Акбаров Д.Е. Ахборот хавфсизлигини таъминлашнинг криптографик усууллари ва уларнинг қўлланилиши. -Т.: Ўзбекистон маркаси, 2009. -432 б.
4. Пардаев А.Х. ва бошқалар. Ахборот хавфсизлиги: муаммо ва ёчимлар. - Т.:Ёзувчи, 2004.